

**O'RTA OSIYODA IJTIMOYIY VA GUMANITAR
TADQIQOTLAR-Jurnali
1-son. 1-qism. Sentyabr-2025**

**Zardushtiylik e'tiqodida hayot bilan o'lim o'rtasidagi kurash to'g'risidagi
tasavvurlarning ifodalanishi.**

Zaynab Abidova-

Urganch davlat tibbiyot instituti "Ijtimoiy fanlar kafedarsi mudiri,
tarih fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Email: zaynab_74_2011@mail.ru

Urganch, O'zbekiston

Annotatsiya

Maqolada Zardushtiylik e'tiqodida hayot bilan o'lim o'rtasidagi kurash to'g'risidagi tasavvurlarning ifodalanishi to'g'risidagi ma'lumotlar yoritilgan. Zardushtiylik dinida bo'lgan asosiy g'oyalardan sanalmish yakkaxudolik (monoteizm), payg'ambarlik g'oyalari, esxatologiya – oxirat haqidagi ta'limot, jannat va do'zax haqidagi tasavvurlar bilan birga madhiyalar, duo va ibodatlar haqida ma'lumotlar berib o'tilgan.

Kalit so'zlar. Zardushtiylik, o'lim, narigi dunyo, esxatologiya, oxirat, Axriman, Axuramazda, Avesto.

Выражение представлений о борьбе жизни и смерти в зороастризме.

Абидова Зайнаб-

Заведующей кафедрой «Общественных наук» Ургенчского
государственного медицинского института, доктор философии (PhD) по
историческим наукам, доцент

Email: zaynab_74_2011@mail.ru

Ургенч, Узбекистан

Аннотация. В статье описывается представлений о борьбе жизни и смерти в зороастризме. Представлены основные идеи зороастризма, включая монотеизм, пророческие идеи, эсхатологию — учение о загробной жизни, понятия рая и ада, а также сведения о гимнах, молитвах и богослужениях.

O'RTA OSIYODA IJTIMOIIY VA GUMANITAR TADQIQOTLAR-Jurnali 1-son. 1-qism. Sentyabr-2025

Ключевые слова. Зороастризм, смерть, загробная жизнь, эсхатология, загробная жизнь, Ахриман, Ахурамазда, Авеста.

The expression of ideas about the struggle of life and death in Zoroastrianism.

Zaynab Abidova –

Head of the Department of "Social Sciences" of the Urgench State Medical
Institute, Doctor of Philosophy (PhD) in Historical Sciences, Associate

ProfessorEmail: zaynab_74_2011@mail.ru

Urgench, Uzbekistan

Annotation. The article describes the concepts of the struggle of life and death in Zoroastrianism. The main ideas of Zoroastrianism are presented, including monotheism, prophetic ideas, eschatology — the doctrine of the afterlife, the concepts of heaven and hell, as well as information about hymns, prayers and divine services.

Keywords. Zoroastrianism, death, afterlife, eschatology, afterlife, Ahriman, Ahura Mazda, Avesta.

Kirish. Ma'naviy-milliy qadriyatlarimiz tiklanib, istiqboli porloq mustaqil davlatimizning qudrati oshayotgan hozirgi davrda xalqimizning uzoq-yaqin o'tmishidagi noyob manbalariga e'tibor yanada ortmoqda. Ular orasida 2700 yildan ortiqroq vaqt davomida qadimgi ajdodlarimizdan bebaho yodgorlik bo'lib qolayotgan "Avesto" alohida o'rin egallaydi.

O'rta Osiyo, Eron, Hindiston, Ozarbayjon xalqlarining hayoti, turmush tarzi, urf-odatlar, diniy e'tiqodi va aqidalari bilan bir qatorda tarix, falsafa, dinshunoslik, manbashunoslik, etnografiya, geografiya, astronomiya, tibbiyot va ijtimoiy-siyosiy hayotning barcha jabhalariga oid to'plangan eng qadimgi ma'lumotlar umumlashtirilgan "Avesto"ning Vatani — qadimgi Xorazm zamini hisoblanadi¹.

Asosiy qism. Zardushtiylik va otashparastlik dinida bo'lgan asosiy g'oyalardan sanalmish yakkaxudolik (monoteizm), payg'ambarlik g'oyalari, esxatologiya – oxirat haqidagi ta'limot, jannat va do'zax haqidagi tasavvurlar, Chinvot ko'prigi (puli Sirot), farishtalar haqidagi tasavvurlar, alqovlar, madhiyalar, duo va ibodatlar g'oyalari,

¹ Mahmudov M.M. "Avesto" — buyuk ma'naviy meros. —Urganch: Birinchi ToshDAVMI Urganch bo'limi, 2001. — 3 b.

O‘RTA OSIYODA IJTIMOIIY VA GUMANITAR TADQIQOTLAR-Jurnali

1-son. 1-qism. Sentyabr-2025

ularning doktrinasini, amaliyoti hamda uslublari, diniy bayramlar, tabiat va turmush tarzi bilan aloqador bayram hamda tamoshalar keyinchalik ko‘p diniy ta‘limotlarga o‘tib, boshqa shakllarda namoyon bo‘la boshlaydi. Ularning barchasi bugungi kunlarda milliy va diniy qadriyat sifatida umuminsoniy qadriyatlarning bir qismi, madaniyatini tashkil etadi.

O‘z mazmun, mohiyatiga ko‘ra yakka xudolik, insoniylik, mehr-shafqat, mehnatsevarlik, yurtparvarlik g‘oyalarini tarannum etib, odamzod ahlini bunyodkorlik, yaratuvchilikka undagan zardushtiylikning muqaddas kitobi “Avesto” olis tariximizning asl durdona asarlari sirasiga kiradi². “Avesto” kitobi mil. av. so‘nggi ming yillik boshlari va o‘rtalarida yashagan hududimizdagi qadimgi xalqlarning o‘ziga xos turmush tarzi, xo‘jalik mashg‘uloti, ijtimoiy-madaniy hayoti, urf-odatlarini, marosimlari haqida ma‘lumot beruvchi muhim tarixiy manbaadir.

«Avesto»da eramizdan oldingi bir necha yuz yilliklar davomida iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, harbiy hayotga, huquq-nizomga doir nodir mulohazalar bilan birga insonning ruhiy, ma‘naviy olamining rang-barang qirralariga oid fikrlar keng yoritilgan. Bu ta‘limotga ko‘ra har bir mazdoparastning ruhan va xulqan komilligi, uning yaxshilikka yuz tutib, rost yo‘lni tanlab, dunyoviy bilimlarni o‘rganib, o‘z kasbini e‘zozlagan holda Ahuramazda farzlarini nechog‘liq ado etishi bilan belgilangan. Zeroki, qo‘sh haydab, don ekkan, chorvani parvarishlab, cho‘lda bog‘ yaratgan, yerning zaxini qochirib, sho‘rini yuvib ziroat ekkan zardushtiyning ravoni pok; xulqi xush, amali chin bo‘ladi.³

Zardushtiylikni paydo bo‘lishi har-xil diniy tasavvurlarning tabiat va jamiyat to‘g‘risidagi tushunchalarning chatishib ketganligi moddiy yodgorliklarda yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Insoniyat tarixida birinchi bo‘lib Zardusht insonlarning bu dunyodagi hayotiga yarasha narigi dunyodagi taqdiri ham bo‘lajagi haqidagi ta‘limotni yuzaga keltirdi⁴. Zardushtiylik ta‘limotiga ko‘ra bu dunyoning boshi bo‘lganligi kabi oxiri ham muqarrar, ya‘ni borliq vaqt va zamon o‘lchamida cheksiz emas. Bu ta‘limot asosida har bir inson o‘lgandan so‘ng o‘z qilmishiga yarasha marhamat yoki jazo topishi g‘oyasi yotadi. Payg‘ambar Zaratushtra dunyoning paydo bo‘lishi va undagi

² Professor M.Is‘hoqovning fikricha “Avesto” so‘zining lug‘aviy ma‘nosi “o‘rganilgan, tayin etilgan, muqarrar etilgan” demakdir. Unda “Ava-staya”, “Ava-pastaka” so‘zlaridagi “Ava” o‘zagidagi “qoyim qilingan qoidalar majmui”, “nizom”, hamda “staya” yoki “staka” o‘zagidagi — “o‘rnatmoq”, “tahrir etmoq” degan mazmunni beradi.

³ Anquetil-Duperron A.H.Zend-Avesta. Ouvrage de Zoroastre. T.I-II-Paris, 1771. -432 et 810

⁴ A.Ashirov “Avestodan meros marosimlar” Toshkent. A. Qodiriy nashriyoti. 2001 B-52

O'RTA OSIYODA IJTIMOIIY VA GUMANITAR TADQIQOTLAR-Jurnali

1-son. 1-qism. Sentyabr-2025

hayot bilan o'lim o'rtasidagi kurashni Axura Mazda va Axriman kabi bir-biriga zid va dushman kuchlarga ajratadi. Bular o'z tafakkuri, so'zi va harakatlarida yaxshilik va yomonlik timsolidir. Bular bir-biriga bilan to'qnash kelib voqealik va yo'qlikni yaratdilar. Kimki yolg'onga ergashsa uni yomon narsalar qarshi oladi, kimki yaxshi yo'lga qadam qo'ysa uni ezgulik kutadi. Keyinchalik bu ikki tushuncha "yaxshi voqealik" hamda "yomon turmush", "jannat", "Behisht" va "Do'zax" singari tasavvurlarni shakllantirdi. Insonning o'z ixtiyori bilan tanlab oladigan bu ikki yo'li uni yo hayot yo o'lim makonlariga eltadi.

O'lim hayotining aksi va dushmani sifatida idrok etilgani va yovuz kuchlarning asorati bilan sodir bo'lgani uchun, yovuz kuchlarning asorati sifatida unga munosabat salbiy bo'lgan. Professor M.Is'hoqovning Avesto, Videvdat kitobi nomli tarjimalaridagi bir qancha fragarlarda u dunyoda inson ruhining taqdiri haqida savol javoblar asosida batafsil ma'lumotlar berilgan.:

- Zaradushtra Axura Mazdadan so'radi:-Ey Axura Mazda, Muqaddas ruh, borliq dunyoning parvardigori, haq taolo! Imonli inson o'lgach birinchi tunda uning ruhi qayerda bo'ladi?.

- -Shunda Axura Mazda inson o'lgach insonning joni agar u imonli bo'lsa "Vahu xishta" da ya'ni "Behisht"da bo'lishini aytadi

- Ikkinchi tunda mayitning joni qayerda bo'ladi?

- Shu tun ham o'lgannning joni rohatda, ba rohat butun borliq topgan rohatdan va farog'atdan ulug'roqdir.

- Murdaning joni uchinchi tunda qayerda bo'ladi?

- Kimga Axura Mazda yor bo'lsa, o'sha ma'firat topgay, gunohlari kechirilgay. Bu ma'firat olam ichra barcha borliq rohatidanda ulug'roqdir. Uchinchi tun o'tgach, Erta tongdamayitning joni o'simliklar, xushbuy gullar ustida uchib yuradi. Uning yo'lida janub tomondan esadigan shabada esib turadi. Janubiy kishvarlar shabadasi o'zga yerlardan xushbo'yroqdir. Murdaning joni ushbu yoqimli hiddan bahramand, bo'lib. Bunday fikr qiladi: "Bu nasim qaydan esmoqda , barcha yellardan xushbuy?". Bu xushbuy shabada bilan uning imoni ro'baru keladi. U hur qiz qiyofasida bo'lib, go'zallikda hech bir hilqat unga teng kelolmas.⁵

⁵ Avesto "Videvdot" kitobi. M. Is'hoqov tarj. Toshdshi nashr.2007.B 90-91

O‘RTA OSIYODA IJTIMOIIY VA GUMANITAR TADQIQOTLAR-Jurnali

1-son. 1-qism. Sentyabr-2025

Zardushtiylarning dafn marosimlarida ruhoniylar va marhumning qarindoshlari uch kecha kunduz davomida zardushtiylarning maxsus duolarini o‘qib turganlar. To‘rtinchi kun boshlanishi bilan, o‘likning ruhi narigi dunyoga uchib ketgandan so‘ng murda chetdagi tepalik yoki tog‘u-toshlarga chiqarib qo‘yilgan⁶. U yerda o‘lik qush-qumursqalar, yovvoyi hayvonlarga yemish bo‘lganlar. Jasad go‘sh tidan tozalangach, suyaklar to‘planib ostadon degan maxsus sopol idishlarga solib qo‘shilgan⁷. Imonli bandaning joni (ruhi) bir qadam qo‘yadi va ezgu uylari uchun berilgan ajru savoblar ustiga o‘rnashadi. So‘ngra ikkinchi qo‘yadi-yu, ezgu so‘zlari uchun berilgan mukofot ustiga qo‘nadi. Uchinchi qadamni qo‘ygach, ezgu amallaridan hosil bo‘lgan ajru savob ustiga qo‘nadi. To‘rtinchi qadamda esa uning joni abadiy yog‘du makoniga –vahu hishtaga, ya’ni bihishtga tushadi⁸.

Ko‘rinib turibdiki, Zardushtra fikricha ruh tanani tark etgan insonning yaxshi va go‘zal amallaridir. O‘z hayoti davomida go‘zallik va yaxshilik, nur va quvonch yo‘lida xizmat qilgan odam haqgo‘y, pok va adolatli bo‘lib, mehmonlarni beg‘araz kutgan, xotinini sevib, erni, mollarni parvarish qilgan, odamlarning mol-mulkiga ko‘z aylantirmaga, tabiatni asrab-avaylab undan zavq olgani uchun uning joni ham bitmas-tuganmas rohat-farog‘atga burkanadi.

Gunohkorlarning esa joni chiqqach, uning ruhi boshi atrofida tentiraydi va uch kun davomida barcha yomon odamlar tortadigan noxushlikni ko‘radi: “Zaratushtra Axura Mazdadan so‘radi:-“ Axura Mazda, Ezgu ruh borliqning parvardigori, Haqqi taolo! Gunohkor bandaning joni uzilgach birinchi tunda qayerda bo‘ladi?” Axura Mazda dedi:- “Ey, imonli Zardushtra! Gunohkorning ruhi boshi uzra tebranib turadi va ...zorlanadi: “... O Axura, endi men netay? Ne yerda turay?” Shu tun davomida gunohkorning joni shu qadar ko‘p azob tortadiki, barcha borliq azob-uqubatlari bunchalik emas”.

Ikkinchi tunda ham uning azoblari behad bo‘ladiki, bu azoblari borliq dunyodagi barcha azoblardan ustun”. “Uchinchi tunda gunohkorning joni qayerda bo‘ladi?”- “Ey imonli Zaratushtra o‘sha yerda, murdaning boshi uzra qalqib turadi va kamnemoy –zam Gotini aytib turadi: “ Boshim solib qayga ketay, qaylarga boray?”.... “Bu kecha ham jonning azoblari shu qadar bo‘ladiki, tiriklik dunyosidagi azob-uqubatlar bunga teng

⁶A.Ashirov “Avestodan meros marosimlar” Toshkent. A. Qodiriy nashriyoti. 2001 B-52

⁷ T.Maxmudov “Avesto haqida” Sharq nashr.2000. 18-bet.

⁸ M.Is‘hoqov “Avesto”, “Videvdot” kitobi” ToshDSHI nashr.2007.91-bet

O'RTA OSIYODA IJTIMOIIY VA GUMANITAR TADQIQOTLAR-Jurnali

1-son. 1-qism. Sentyabr-2025

kelmasdir". Uchinchi kecha oxirida, ey imonli Zaratushtra, tong saxarlab gunohkorning joni daxshatli va badbo'y joylar ustida charx uradi. Unga yerning orqa tomonidan shimoldan kishvarlardan badbo'y shabada esadi. Bunday badbo'y shamol hech yerda yo'q". Shundang so'ng gunohkorning oldiga badbashara qiz uning qabih ishlari timsolida keladi. Badbashara qiz unga deydi: "Men sening qabih ishlarimgan, O'zim asli buzuq hilqat edim. Sen tufayli yanada buzildim, mening asli nomus, uyat joy edi, sen tufayli yanada sharmanda bo'ldim". Shundang so'ng gunohkorning joni gardanigacha olg'a bosib, birinchi qadamni qo'ygan paytida Dishmat (yovuz uy) a'molidan kelgan gunohlari ustiga qo'ndi, ikkinchi qadamda esa, gunohkorning joni Dujux (yovuz so'z)dan kelgan gunohlari jazosining ustiga qo'ndi, uchinchi qadamni qo'yganda Dujvaresht (yovuz ishlari)dan kelgan jazo (xirmoni)ga tushadi. To'rtinchi qadami bilan gunohkor osiy bandaning joni cheksiz zulmatga, ("Dujvax-ya'ni do'zax)ga tushadi⁹. Imonli insonga bihisht rizqi nasib etganda unga sariq moydan yemish keltiriladi, ya'ni u Axura Mazdaning muqaddas oloviga solib turiladigan xo'shbo'y moy u dunyoda o'lganlar jonining ozig'i bo'ladi, deb ishonishgan. Gunohkor insonga esa eng sassiq zahardan yemish keltirganlar. Yovuz uy, yovuz so'z, razil ishlar yo'lida imonsiz o'tganning abadiy dunyodagi o'lganidan keyingi yemishi bo'lgan.

Zaratushtraning dunyoqarashiga ko'ra dunyo xudo tomonidan yaratilgan va oxiratda ham hayot mavjuddir. Zaratushtra o'lgan odamning oxiratdagi qismatida ham tozalik va poklikning, yaxshilik va ezgulikning asosiy omili bo'lib qolishini ta'kidlaydi. Bu narsa Zardushtiylik ta'limotining ahloqiy-estetik mohiyatini yaqqol namoyon qiladi. Qayerda fikr, so'z va ish uyg'unligi bo'lsa, o'sha yerda olijanoblik va go'zallik g'alaba qozonadi, qachonki tana va jon nifoqqa uchrasa inson hayoti tanazzulda joni esa qilgan yomonliklari jabrini tortib, azobda qoladi. Kimki yorug' jahonda aqlli bo'lsa, donishmandlik saltanati u dunyoda abadiy qoladi.

Xulosa. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak zardushtiylarning narigi dunyo haqidagi tasavvurlarining asosida tan va jon, ruh va qalb, yaxshilik va yomonlik, hayot va o'lim, go'zallik va xunuklikni idrok etish masalalari yotadi. Ezgu fikr, ezgu kalom, ezgu amal insonni komillik sari yetaklovchi birinchi ruh bo'lib, unga erishgan odam Xudoga yaqin bo'lib boradi. Oxiratda ham axloqiy pok odamlar razil va munofiqlarni yengib, abadiy quvonch bag'rida yashaydi.

⁹ M.Is'hoqov Avesto "Videvdat" kitobi ToshDSHI nashr.93-94 b